

Uzbekistan Airways Toshkentda bo'lib o'tgan MICE-seminarida ishtirok etdi

2025 29 May

Malayziyaning O'zbekistondagi elchixonasi Turizm bo'limi tomonidan tashkil etilgan "Choose Malaysia as MICE Destination" xalqaro MICE-seminari 2025-yil 29-may kuni Toshkentdagi Holiday Inn mehmonxonasida bo'lib o'tdi.







Uzbekistan Airways tomonidan tadbir ishtirokchilariga batafsil ma'lumot berildi va aviakompaniyaning Toshkent - Kuala-Lumpur yo'nalishi bo'yicha imkoniyatlarini namoyish etildi. Boeing 787 Dreamliner havo kemalarida qulay parvozlarni, ushbu yo'nalishga qiziqish ortib borayotgani va Malayziyaga ishbilarmonlik va guruh bo'lib sayohat qiladiganlar uchun yangi istiqbollar haqida so'zlab berildi.







Seminar mehmonlari biznes-sayohatlar haqida eksklyuziv ma'lumotlarga ega bo'lishdi, shuningdek, aviakompaniya vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'yishdi.

